

## "Siz mehnat muhofazasini bilasizmi?"

Joriy yilning 9-aprel kuni Toshkent Davlat Agrar universitetida O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmasi Federatsiyasining "Siz mehnat muhofazasini bilasizmi?" nomli Respublika tanlovining Toshkent shahar hududiy bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda institutimiz "Mehnat muhofazasi muhandislari" jamoasi, ToshDAU talabalari jamoasi bilan kuch sinashishdi. Tanlovga tomoshabin sifatida institutimizdan 235 nafar talaba-yoshlar institut jamoasini qo'llab-quvvatlash uchun yetib borishdi.

3 ta shart bo'yicha yakuniy natijalarga ko'ra bizning institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi jamoasi 71 ball bilan 2-o'rin g'olibi deb topildi. Jamoamiz katta ehtimol bilan keyingi bosqichda ham ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Buning uchun tashkilotchilarga taklif berib o'tildi. Nima bo'lganda ham institut jamoasi munosib chiqish qildi, savollarga to'liq javob berdi, sahna ko'rinishlari haqiqatdan ham hayotiy voqealar asosida tayyorlanganini alohida ta'kidlashimiz lozim. Institut yoshlari nomidan jamoa ishtirokchilariga katta minnatdorchilik bildiramiz va sizni tabriklaymiz. Keyingi faoliyatingizda omad tilaymiz.



**Institut matbuot kotibi rahimboy jumaniyozov**